


Respublika OAK jurnali

ISSN 2181-4201

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY-METODIK JURNALI



AVGUST 2026, 5-SON

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
<https://etjournal.buxdpi.uz>



BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

№. 5

BUXORO – 2026

IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHGA DOIR TAJRIBALAR

Kattaqulova Nozbibi Shokir qizi,
kattaqulovanobibi@gmail.com
+998940721522

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga doir milliy va xorijiy tajriba tahlili to'g'risidagi ma'lumotlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Iqtidor, ijodkorlik, qobiliyat, texnologiya, o'quvchi, ta'lim-tarbiya, takomillashtirish, ilm-fan, innovatsiya, konsepsiya, pedagogik-psixologik, yangilik.

ОПЫТ РАБОТЫ С ОДАРЕННЫМИ СТУДЕНТАМИ

Каттақулова Нозбиби Шоқир қизи,
kattaqulovanobibi@gmail.com
+998940721522

Аннотация: В данной статье проводится анализ отечественного и зарубежного опыта работы с одаренными учащимися.

Ключевые слова: Талант, творчество, способность, технология, ученик, образование, совершенствование, наука, инновации, концепция, педагогико-психологические, инновации.

EXPERIENCES IN WORKING WITH GIFTED STUDENTS

Kattaqulova Nozbibi Shokir qizi,
kattaqulovanobibi@gmail.com
+998940721522

Annotation: This article provides an analysis of national and international experiences in working with gifted students.

Keywords: Talent, creativity, ability, technology, student, education, improvement, science, innovation, concept, pedagogical-psychological, innovation.

Mamlakatimizda istiqbolli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidorini ro'yobga chiqarish, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Shu bilan birga, ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning ilm egallashga bo'lgan ishtiyoqi va intellektual salohiyatini oshirish, shuningdek xalqaro maydonda mamlakatamizning nufuzini yanada yuksaltirish uchun iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini takomillashtirish zarurati mavjud.[1]

Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga doir xorijiy tajribalar asosida respublikamizda ham mustaqillik yillarida qator ishlar amalga oshirildi:

birinchidan, iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 1993 yildan boshlab respublika fan olimpiadasi o'tkazib kelinmoqda va g'olib o'quvchilar oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli qabul qilinishi qonun bilan belgilab qo'yildi.

ikkinchidan, respublikamizda ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari tashkil etilgan bo'lib, o'quvchilar o'zlarining imkoniyati va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, fan yo'nalishi bo'yicha chuqurlashtirilgan va ixtisoslashtirilgan ta'lim olish imkoniyatiga egadirlar.

Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash tizimini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27- iyundagi "Yoshlar- keljagimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5466-son farmoni [2] hamda 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy- axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son Qarori [3] qabul qilindi.

Tahlil va natijalar: Jahonda iqtidorli bolalar noyob hodisa sanaladi. Dunyoning turli mamlakatlarida mazkur masalani tadqiq etishga, iqtidorli o'quvchilarni tanlash, ularni tarbiyalash va

rivojlantirishga doir o'ziga xos

tajriba to'planganligini alohida qayd etib o'tish o'rinlidir. Masalan, XX asr boshlarida Amerika pedagogik-psixologik adabiyotlarda odatdagi tarbiyalanuvchilardan ba'zi bir xususiyatlari bilan farq qiladigan bolalar turli nomlar bilan atalgan. Psixologiya fanlari doktori G.Uilli yuksak qobiliyatlarga ega bolalar uchun "iqtidorli bolalar" atamasini qo'llashni taklif etgan. Adabiyotlar tahlili Amerikada iqtidorli bolalarni yuqori intellekt va a'lo darajada o'zlashtiruvchilar deb hisoblashganligini ko'rsatadi.

AQSHda iqtidorli o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda turli-tuman shakl va metodlardan keng foydalaniladi. Jumladan: "Magnitli maktablar", "hurmat sinflari", "darajalanmaydigan sinflar", "aralash layoqatli" guruhlariga ta'lim berish kabilar. Iqtidorli o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda axborot texnologiyalarini qo'llash alohida o'rin egallaydi. Chunki o'quvchilarning kompyuterda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish ularning mayllarini oshirib, mustaqil bilim olish va bilish faoliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashadi.

Rossiyada ham iqtidorli o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishga alohida e'tibor qaratiladi. 2000 yilda mazkur davlat hukumati tomonidan "Iqtidorli bolalar" dasturi qabul qilingan. Mazkur dasturning asosiy maqsadi iqtidorli, iste'dorli o'quvchilarni aniqlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash tizimini yaratishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, mamlakatning intellektual, ijodiy quvvatlarini rivojlantirish, iqtidorli bolalarni tanlov asosida aniqlash mexanizmlarini vujudga keltirish nazarda tutilgan.

Rus olimlari tomonidan "Iqtidorlilar ishchi konsepsiyasi" ishlab chiqilgan. Mazkur konsepsiyada iqtidorli hamda iste'dodli bolalarni aniqlashning prinsiplari va metodlari nazariy jihatdan asoslangan.

Januniy-Sharqiy Osiyo davlatlarida amalga oshirilayotgan iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashga doir ilg'or tajribalarni o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xitoyda iqtidorli o'quvchilar qoidaga muvofiq ta'limning keyingi bosqichlarini davom ettirishda turli imtiyozlar- davlat stipendiyalari, ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan yordam pullaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Xitoyda iqtidorli o'quvchilar uchun maxsus maktablar mavjud emas, biroq universitetlar qoshida ochilgan o'rta maktablarning imkoniyatlaridan samarali foydalaniladi. Har bir universitet qoshida kadrlar va yuqori darajada ta'lim berishni ta'minlaydigan maktablar mavjud.

Koreya Respublikasida ham iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning asosiy yo'nalishi sifatida maxsus maktablarni yaratish va qo'shimcha ta'limni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtidorli bolalar uchun Busan shahrida "super maktab" tashkil etilgan. Maktab "Busan fan akademiyasi" ("Busan Science Academy"), 2006 yildan "Koreya fan Akademiyasi" ("Korean Science Academy") nomini olgan. Mazkur maktab Xitoydagi "super maktablar" dan tubdan farq qiladi. Eng avvalo, u universitetdagi qat'iy tartib-qoidalarni o'zida aks ettirmaydi, biroq o'z-o'zidan "bolalar universiteti" funksiyasini bajaradi. Maktabda iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishga doir metodlar ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda barcha davlatlar ta'limga imkon qadar ko'p yangilik kiritishga intilmoqda. Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalardir. Novatorlikka qiziqish uyg'otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta'limning o'zi yangiliklarga boy bo'lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlarni tashkil etish doimiy ravishda ish shakllarini innovatsiyalab borishni taqozo etadi. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning innovatsion shakllariga internet- konferensiyalar, forumlar, ta'lim muassasasi saytlari, ijtimoiy loyihalar tanlovlari kabilarni kiritish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori PQ-4306-son 03.05.2019. Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari.
2. Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash tizimini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27- iyundagi "Yoshlar- keljagimiz" Davlat dasturi to‘g‘risida"gi PF-5466-son farmoni.
3. 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy- axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-3907-son Qarori.
4. Rahmatova F.G‘. "Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash texnologiyasini takomillashtirish haqida" monografiya. Samarqand 2020
5. www.hozir.org
6. <https://arxiv.uz>

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA , PSIXOLOGIYA VA METODIKA	
AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING INDIVIDUAL JISMONIY YUKLAMALARINI OPTIMALLASHTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH Mansurov Olimjon Odil o'g'li	4
CHUQURLASHTIRILGAN IXTISOSLIK BOSQICHIDA UZOQ MASOFAGA YUGURUVCHILARNING MASHG'ULOT JARAYONINI BOSHQARISH MUAMMOLARI Sirojev Shoxrux Fayzullo o'g'li	11
CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM DIDAKTIKASIDA TARBIYALASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI Bozorov Aziz Abloqulovich	16
DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TASVIRIY SAN'AT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI Bozorova Hamida Shukrilloevna	23
CHIZMACHILIK FANINI SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANIB O'QITISHNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI Omonova Rayxon	26
JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA REGBI ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH ORQALI TALABALARNING HARAKAT KOORDINATSIYASINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI E.E. Jumayev	31
JISMONIY MADANIYAT YO'NALISHI TALABALARIGA KURASH TEXNIK HARAKATLARINI O'RGATISHNING UYG'UNLASHTIRILGAN METODIK MODEL G'ulomov Nasillo Baxshullo o'g'li	34
BO'LAJAK PEDAGOGLARDA HUQUQIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI VA INDIKATORLARI Mirzayev Toxirjon Turg'unovich	43
ISSIQ IQLIMDA MASHG'ULOT YUKLAMASINI RPE VA YURAK URISH CHASTOTASI YORDAMIDA BAHOLASH I.I. Saidov	55
IMOM ABU HOMID G'AZZOLIY QARASHLARI ASOSIDA FARZAND TARBIYASINING METODOLOGIK VA NAZARIY ASOSLARINI TADQIQ ETISH Isoqova Gulnoz Ulug'bek qizi	61
RAQAMLI MONITORING VOSITALARI ORQALI YOSH KURASHCHILAR YUKLAMASINI OPTIMALLASHTIRISH Karim Mahramov	67

TALABALARNING REFLEKSIV KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI Jumayeva Azizabonu Mo'min qizi	74
IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHGA DOIR TAJRIBALAR Kattaqulova Nozbibi Shokir qizi	82
MINIATYURA SAN'ATIDA AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TASVIRIY VOSITALARNING UYG'UNLIGI Nozimova Muhabbat Akram qizi	85
DIGITAL TECHNOLOGY FOR L2 LISTENING DEVELOPMENT: CALL, MALL, CAPTIONS, VR, AND AI Juraboeva Nigina Olimjon kizi	95
ISSIQ IQLIM SHAROITIDA GIDRATATSIYA TARTIBINING YOSH YENGIL ATLETIKACHILARNING FUNKSIONAL HOLATI VA JISMONIY ISH QOBILIYATIGA TA'SIRI Nuriddinov Axrorjon Bahodir o'g'li	99
GANDBOLCHI TALABA QIZLARDA JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHDA BOSQICHMA-BOSQICH YUKLAMA BERISH METODIKASI Dilnoza I. Yarasheva	105
OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIGA BOSQON ULOQTIRISH TEXNIKASINI O'RGATISHNING PEDAGOGIK VA METODIK ASOSLARI Sarvinoz Iskandar qizi	111
GIMNASTIKA VOSITALARI ORQALI BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI Saidova Mahbuba Ayubovna	118
BOSHLANG'ICH TAYYORLOV GURUHIDAGI SPORT GIMNASTIKACHILARDA MOSLASHUVCHANLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING SAMARADORLIGI Sayfiyev Hikmatullo Xayrulloevich	127
THE APPLICATION OF THE PEDAGOGICAL CONCEPT OF JADID SCHOOLS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna	134
MULTIMEDIA VOSITALARI ASOSIDA TALABALARNING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI Toshova To'ygul Amin qizi	141
INKLYUZIV TA'LIM MUHITIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING HAYOTIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMLARI Urunova Dilafro'z Muzafarovna	145
МАКТАБ КЛАСТЕРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИОН, КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ВА РЕСУРСЛАРГА АСОСЛАНГАН ЁНДАШУВЛАР Максуда Умаровна Бадалова	153
ЭВОЛЮЦИЯ ПОНЯТИЯ «КОММУНИКАТИВНАЯ	158

КОМПЕТЕНЦИЯ» В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕОРИИ: ОТ ЯЗЫКОВОГО ЗНАНИЯ К ИНТЕГРАТИВНОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ХАРАКТЕРИСТИКЕ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ Нуруллаева Гузал Анваровна	
FILOLOGIYA FANLARI	
ОТ ПЕРЕЖИВАНИЯ К СМЫСЛУ: АВТОРСКАЯ МЕТОДИКА ИНТЕРПРЕТАЦИОННОГО ОСВОЕНИЯ ПОЭЗИИ А. АХМАТОВОЙ В ПРОЦЕССЕ ЯЗЫКОВОГО И ЛИЧНОСТНОГО РАЗВИТИЯ УЧАЩИХСЯ Жабборова Гулчехра Жобировна	168
NUTQIY AKTNI TADQIQ ETISHNING LINGVOPRAGMATIK VA ANTROPOSENTRIK MEZONLARI Akramova Surayo Renatovna	174
TILNI O'RGANISH JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTNING KALIT JIHATLARI VA UNDA SAMARALI FOYDALANISH STRATEGIYALARI: RAQAMLI DAVR TILSHUNOSLIGINING YANGI UFQLARI Boymurodova Nishona Yunus qizi	178
IMOM G'AZZOLIY ASARLARIDA "ILM" KONSEPTINING LINGVOKOGNITIV TALQINI Barnoyeva Zarina Sayfiddinovna	184
ПУТЬ К СМЫСЛУ ЧЕРЕЗ СИМВОЛ: АВТОРСКАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ТВОРЧЕСТВА А. БЛОКА В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ЛИТЕРАТУРНОГО ОБРАЗОВАНИЯ Жабборова Гулчехра Жобировна	189
INGLIZ XALQ ERTAKLARI LINGVOMADANIY-DIDAKTIK MIKROKORPUSINI SHAKLLANTIRISH: TANLASH MEZONLARI VA ANNOTATSIYA MODELI Djabbarova Feruza Azamovna	194
JOMIY VA NAVOIY IDIOSTILIDA "LA'L" KONSEPTI VA UNING METAFORIK XUSUSIYATLARI Tavakkal Choriyev	200
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV TOPSHIRIQLARNING TALABALAR KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI Shabonova Shaxnoza Baxriddinovna	213
ANIQ VA TABIIY FANLAR	
BO'LAJAK BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHGA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR Hamdamova Nozima Mukimovna	218
GRAFIK SAVODXONLIKNI BAHOLASHDA ANIMATSION DIAGNOSTIKA VOSITALAR Xo'janiyozov Shokir Rustamovich	225